O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

_______________

Rektor G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil "30" 06

# JAHON TARIXI

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220000 | - | Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60220300 | - | Tarix |

**Toshkent – 2025**

| | | |
|---|---|---|
| Fakulteti dekani | imzo | M.M.Askarov |
| Kafedra mudiri | imzo | Sh.I.Ikromov |
| ARM boshlig‘i | imzo | M.Yuldasheva |

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>JT12-316</td><td>O‘quv yili<br>2025/2026<br>2026/2027</td><td>Semestr<br>2<br>3</td><td colspan="2">YeCTS - Kreditlar<br>8<br>8</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>6/6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Jahon tarixi</td><td>144</td><td>336</td><td>480</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">I. Fanning mazmuni:<br>Jahon tarixi o‘quv fanining asosiy maqsadi – qadimgi davrdalardan bugungi kunga qadar kechgan tarixiy rivojlanish jarayonlarini har tamonlama atroflicha tahlil qilish, jarayonlarga turli yangi tadqiqot usullari asosida yangicha yondashish. Shu munosabat bilan quyidagilar asosiy maqsad va vazifa hisoblanadi:<br>Jahon mamlakatlari tarixining turli davrlarda iqtisodiy, ijtimoiy rivojini har tomonlama o‘rganish. Talabalar e’tiborini asosiy omillar (geografik, sivilizatsiya, an’analar, etno-ijtimoiy, tashqi-siyosiy va ilmiy)ni taxlil qilishga qaratish lozim. Davlatning parchalanishi, qabila va hududiy etnik guruhlar o‘zini o‘zi izolyatsiya etish jarayonini, hozirgi siyosiy kuchlar joylashini, siyosiy orientatsiyalarini o‘rganish zarur.<br>Ushbu kursni o‘zlashtirish, yaxshi o‘rganish, singdirish maqsadida kursni o‘rganishda sharq va g‘arb tillaridagi nom va atamalarni yozib borish tavsiya qilinadi, bundan maqsad - tarixiy - jug‘rofiy nomalarni eslab qolish, ularni qaytadan takrorlash, yod olish talab etiladi. Kurs bo‘yicha o‘quv materiallarini va manbaalarini chuqur o‘rganish o‘rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, iqtisodiyotini o‘rganish davomida, uning tarixiy rivojlanishi qonuniyatlarini to‘g‘ri tushunib olishga imkon beradi.<br><br>Xorij tajribasiga muvofiqligi:<br>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi Boston universiteti (QS 111) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://www.bu.edu/history/files/2015/08/175fall15.pdf</td></tr>
</table>

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1- mavzu. Jahon tarixi faniga kirish: yangicha yondashuvlar va davrlashtirish muammolari

Jahon tarixi deb nomlangan ushbu o'quv fanining asosiy maqsadi - turli davr (qadimgi davr, o'rta asr, yangi va eng yangi davr)dagi jamiyatning rivojlanishini o'rganishdan iborat. Formatsion evolyutsiyaning o'ziga xos xususiyatlari jamiyat tuzilmasiga, urug'chilik qabila tuzilish elementlari kamayib borishiga, ushbu o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarda, ong va turmushida ham ro'y berishiga, o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bular siyosiy hayot haqida ma'naviy ahloqiy jarayonga ham ta'sir etdi. Mazkur fan jahonmamlakatlarining hozirgi ahvolini to'laroq tushunib olish uchun zarur va dolzarbdir. Jahon mamlakatlarining siyosiy tarixining xususiyatlari, an'analari va hozirgi hayotini bilish talabalar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Eng qadimgi davr tushunchasi. Eng qadimgi davrni belgilash muammolari. Medilestika – o'rta asrlar tarixi. O'rta asrlar tarixini belgilash muammolari. O'rta asrlar xronologiyasini belgilash. Yangi va eng yangi davrni belgilash muammolari. Industrial va postIndustrial jamiyatlari. Sharq xalqlarining bugungi taraqqiyot bosqichlarini belgilash.

### 2-mavzu. Qadimgi sivilizatsiyalarning vujudga kelishi

Sivilizatsiya tushunchasi. Sivilizatsiyalarning vujudga kelishiga doir ilmiy konsepsiyalar. Qadimgi Sharq tarixiy madaniy makon sifatida. Qadimgi Sharq: tarixiy, madaniy va geografik tahlil. Qadimgi Sharqda sivilizatsiyalar vujudga kelishining tabiiy shart-sharoitlari. Sharqdagi dastlabki sivilizatsiyalarning o'rganilishi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga oid tadqiqotlar. Qadimgi Sharq va Antik sivilizatsiyalarning o'ziga xos va farqli xususiyatlari.

### 2- mavzu. Mesopotamiya sivilizatsiyasi

Mesopotamiya tabiiy sharoitiva aholisi.Ilk tabaqaviy jamiyat shakllanishining shart-sharoitlari. Shumer sivilizatsiyasining vujudga kelishiga doir ilmiy konsepsiyalar. Mesopotamiyada ilk shahar-davlatlarning tashkil topishi. Akkad podsholigi va Urning III sulolasi davlatl. Akkd davlatlari. Sargon I hukmronligi. Gutiylarning Mesopotamiyani egallashi va ularning 125 yillik hukmronligi. Gutiylarni Mesopotamiyadan haydab chiqarilishi va mamlakatda hokimiyatni Urning III sulolasi vakillari qo'liga o'tishi. G'arbdan yangi ko'chmanchi-amoriy qabilalarining Mesopotamiyaga bostirib kirishi va Ur podsholigini tugatilishi.

**4-mavzu. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi**

Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari va tarixnavisligi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining jahon tarixida tutgan o'rni. Qadimgi Misrda ilk davlatlarning tashkil topishi. Ilk podsholik davrida Misr (m. av.XXXIII – XXIX asrlar). Qadimgi podsholik davrida Misr (m. av.XXVIII-XXIII asrlar).

**5-mavzu. Qadimgi Eron sivilizatsiyasi**

Qadimgi Eron aholisi. Eronda dastlabki davlatlarning tashkil topishi. Elam davlati. Qadimgi Elam davlati. Xo'jalik hayot va ijtimoiy munosabatlar. Qadimgi Elam davlatining Mesopotamiya davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqolari. Davlatning gullab-yashnashi va inqirozga uchrashl. Qadimgi Midiya. Midiyaning kuchli davlatga aylanishi. Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar. Ichki va tashqi savdoning rivojlanishi. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Qadimgi Midiya madaniyati. Ahamoniylar davlati. Ahamoniylar davri madaniyati.

**6-mavzu. Ahamoniylar davlati. Ahamoniylar davri madaniyati**

Ahamoniylar davlati eramizdan avvalgi VI asrda Kir II tomonidan asos solingan va Yaqin Sharqdagi eng yirik imperiyalardan biri bo'lgan. Bu davlat Eron, Mesopotamiya, Misr, Hind vodiysi va Kichik Osiyoni o'z tarkibiga qo'shgan. Ahamoniylar davlati markazlashgan boshqaruv tizimi va satrapliklar orqali idora qilingan. Ular kuchli harbiy qudrat va samarali yo'l tizimi bilan mashhur bo'lgan. Poytaxt Persepol qadimgi me'morchilikning nodir yodgorligi sifatida qurilgan. Ahamoniylar davrida zardushtiylik dini rasmiy e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Madaniyatda turli xalqlarning san'ati va an'analari uyg'unlashgan. Ular yozuv, haykaltaroshlik va naqshlarda yuksak darajaga erishgan. Shuningdek, Ahamoniylar xalqaro savdo yo'llarini rivojlantirib, iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shgan. Bu davr jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallagan.

**7-mavzu. Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi**

Qadimgi Hindistonning geografik o'rni, tabiiy sharoitlari, aholisi, davrlashtirilishi, asosiy manbalari va tarixnavisligi. Ilk Hind sivilizatsiyasi (mil. av. XXIII–XVIII asrlar). Mil. av. XV-IV asrlardaQadimgiHindiston. Makedoniyalik Aleksandr davlatining parchalanishi. M. avv. IV – I va milodiy I – IV asrlarda Qadimgi Hindiston. Qadimgi Hindistonning ijtimoiy tuzumi va madaniyat.

**8-mavzu. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi**

Eng Qadimgi Xitoy. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Aholining mashg'ulotlari. Qadimgi Shan – In davlati. Chjou podsholigi. Sin podsholigi. Xan podsholigi. Xan saltanatining zaiflashuvi va ommaviy harakatlar. Qadimgi Xitoy madaniyati.

**9-mavzu. Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasi**

Qadimgi Yunonistondagi eng qadimgi shahar-davlatlar. Minoy sivilizatsiyasi. Yunonlarning dengiz sayohatlari. Afina davlati. Afinada ta'lim. Afina demokratiyasi. Drakont qonunlari. Solon islohotlari. Periklasri. Sparta davlati. Yunon koloniyalari. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunonistonda fan.

**10-mavzu. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi**

Italiya va uning qadimgi aholisi. Rimga asos solinishi. Qadimgi Rimda boshqaruv. Rim Respublikasi. Rim davlat boshqaruvtizimi. Rim qo'shini va uning tuzilishi. Karfagen bilan Rim o'rtasida O'rta yer dengizi hududida hukmronlik qilish uchun o'zaro kurashni boshlanishi. Puni urushlari. Spartak qo'zg'oloni.

Rim Respublikasining qulashi. Sezar hokimiyatining qaror topishi. Rim imperiyasining paydo bo'lishi. Mil.av. I asrning o'rtalarida Rimda siyosiy kurashning keskinlashuvi. Oktavian Avgust prinsipati. II asrda Rim imperiyasi. "Oltin davr". Trayan prinsipati (98-117-yillari). III asrda Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz. Konstantinning imperatorlik davri. Rim imperiyasida xristianlikni yoyilishi. Rim imperiyasining varvar qabilalari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishi. Varvar qabilalarining Rim imperiyasiga ta'sirini kuchayishi va Rim imperiyasining qulashi. Qadimgi Rim madaniyati.

**11-mavzu. O'rta asrlar davrini belgilash muammolari**

O'rta asrlar tushunchasi. O'rta asrlar jamiyati haqida. Sharqda yer egaligi jamiyati. O'rta asrlar tarixini Sharqda o'rta asrlarni belgilasb. Sharqda o'rta asrlarni boshlanishidagi xilma-xilliklar. Sharqda o'rta asrlarning yakunlanishi.

**12-mavzu. Islom dinining vujudga kelishi va Arab xalifaligi**

Arab mamlakatlari VI asr oxiri VII asr boshlarida. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyatlari. Islom dinining vujudga kelishi.Qur'on. Hadis. Ilk arab xalifaligi. Xalifalik davridagi harbiy yurishlar.

Umaviylar xalifaligi. Bog'dod xalifaligining vujudga kelishi. Islom

dinining dunyo diniga aylanishi. Abbosiylar xalifaligida xalq qo'zg'olonlari. Abbosiylar xalifaligining qulashi. Arab xalifaligiga qarshi mo'g'ullarning yurishlari. Arab xalifaligi madaniyati.

**13-mavzu. O'rta asrlarda Turkiya, Eron va Afg'oniston**

Vizantiya imperiyasining tashkil topishi. Vizantiya shaharlari. Vasilevs hokimiyati. Vizantiya hayotida ellinizm. Vizantiyaning oltin asri. Turkiy qabilalar kelishiga qadar Kichik Osiyo. Kichik Osiyoni turklar tomonidan istilo qilinishi. Usmonli turklar imperiyasining tashkil topishi. Bolqon yarimorolidagi istilolar. Anqara jangi. Konstantinopolning qulashi. XV asrda Usmonli turklar davlatining kengayishi.

Sosoniylar davlati. Eron Arab xalifaligi tarkibida (VII asr o'rtalari-X asr boshlari). Eronda mustaqil amirliklarning vujudga kelishi. Eron rivojlangan feodalizm davrida (X –XIII asr boshlari). Eron mo'g'ul xonlari istibdodi davrida. Eron feudal tarqoqlik davrida (XIV-XV asrlar).

Afg'onistonda feudal munosabatlarning vujudga kelishi. Afg'oniston Arab xalifaligi va mahalliy musulmon sulolalari hokimiyati ostida. Afg'oniston G'aznaviylar hokimiyati ostida. Mo'g'ullar bosqini davrida Afg'oniston. Amir Temur va temuriylar.

**14-mavzu. O'rta asrlarda Hindiston**

Hindistonning o'rta asrlar tarixnavisligi. Hindiston ilk o'rta asrlar davrida. VI-VIII asrlarda Hindiston davlatlari. VIII-XII asrlarda Shimoliy Hindiston davlatlari. XI-XIV asrlarda Janubiy Hindiston davlatlari. Dehli sultonligi. XIV-XV asrda Bahmoniylar davlati. Portugaliya mustamlakachilarining Hindistonga kirib kelishi.

**15-mavzu. O'rta asrlarda Xitoy. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi**

Xitoyning birlashishi. III-IV asrlarda Xitoyda feudal munosabatlarining vujudga kelishi. Shaharlar, hunarmandchilik va savdo. Tan sulolasi davrida Xitoy. Sun sulolasi davrida Xitoy. Xitoy feudal munosabatlar rivojlanishi davrida. Xitoy besh sulola va o'n podsholiklar davrida. Mo'g'ullar hujumi, ular zulmining daf etilishi va Min imperiyasining tashkil topishi.

XI – XIII asrlarda mo'g'ul qabilalari. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi. Chingizxonning bosqinchilik yurishlari. Mo'g'ul impyeriyasi. Yuan davlati. Ijtimoiy–iqtisodiy munosabatlar. Markaziy Osiyo mo'g'ul davlati tarkibida.

**16-mavzu. O'rta asrlarda Yaponiya va Koreya**

Yaponiyada feudal munosabatlarning vujudga kelishi (VII-X asrlar). O'rta asrlarda Yaponiyada ijtimoiy munosabatlar. Yaponiya o'rta asr shaharlari

taraqqiyoti. Feodal munosabatlarning rivojlanishi (X-XIV asrlar).

Koreyada uch davlatning barpo bo'lishi. Silla davlatining qulashi va Koryo davrining boshlanishi (IX asr oxiri-X asr boshi). Mo'g'ullar bosqini davrida Koryo davlati. Koreya ilk Chosan davrida. XVII asr boshida manchjurlar bosqini.

**17-mavzu. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa davlatlari**

Quldorlik tuzumining inqirozi. Feodal tuzumning asosiy belgilari. O'rta asr jamiyatining xronologik chegaralari. IV-V asrlarda Rim saltanati jamiyatining yangi qatlamlari. Mabaliy feodallarning xuquqlari. Xristian cherkovi. Rim saltanati varvarlarning bosqini arafasida. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi. Keltlar.Germanlar. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi. Rim saltanatining varvarlar tomonidan bosib olinishi. Franklar qirolligida feodal munosabatlarning rivojlanishi. Buyuk Karl saltanati va uning parchalanishi. X-XI asrlarda Germaniya, Italiya, Angliya va papalik. X-X1 asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi. Italiya yurishlari. Muqaddas Rim saltanatining tashkil topishi. Papa va imperatorlarning investitura uchun kurashi. Genrix IX ning hukmronligi.

Fransiyada markazlashish siyosatining boshlanishi. General shtatlar. Yuz yillik urush. Siyosiy birlashishning yakuni. Fransiya XV asrning ikkinchi yarmida. Mutloq monarxiyaning o'rnatilishi. Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi. Vilgelm Boskinchi va uning vorislari. Erkinliklarning buyuk Xartiyasi. «Na'munali parlament». Uot Tayler qo'zg'oloni. Qizil va Oq atirgullar urushi. Tyudorlarning hokimiyat tepasiga kelishi. Germaniya XII-XIII asrlarda. Shtaufenlar sulolasi. Barbarossaning Sistiliya siyosati. Papa Innokentiy III siyosati. Shtaufenlarning inkirozi. German feodallarining G'arbga salb yurishlari. Ganza ittifoki. XIII-XV asrlarda Germaniyaning siyosiy rivojlanishi. Gabsburglar hokimiyati.

**18-mavzu. Salib yurishlari va uning Yaqin Sharq mamlakatlariga ta'siri**

Salib yurishlarning sabablari va ishtirokchilari. Birinchi salib yurishi. Yaqin Sharqdagi salibchilar davlatlari. Quddus qirolligi. Diniy-ritserlik ordenlari. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi salib yurishlar. Oxirgi salib yurishlari. Salib yurishlarning yakuni va ularning ahamiyati.

**19-mavzu. Yevropada yangi davrning boshlanishi**

Buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlaka tizimining shakllanishi. Yangi davr boshlarida Yevropaning ijtimoiy – iqtisodiy qiyofasi. Uyg'onish davrida Yevropa madaniyati. XVI – XVII asrlarda qirollik hokimiyatining kuchayishi. Absolyutizm. Reformatsiya va Yevropada absolyutizmning mustahkamlanishi.

## 20-mavzu. Yevropada industrial sivilizatsiyaning shakllanishi

Industrial sivilizatsiyaning mohiyati. Jamiyat taraqqiyotida sanoatning yetakchi o'ringa chiqishi. An'anaviy agrar xo'jalikdan texnika va ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotga o'tish. XVIII asrda Angliyada boshlangan sanoat inqilobi. Fan va texnika yutuqlari: bug' mashinasi, to'quv dastgohi, metallurgiyaning rivoji. Bozor munosabatlarining kengayishi va kapitalistik xo'jalikning mustahkamlanishi. Yangi ijtimoiy qatlamlarning — ishchilar va sanoat burjuaziyasining shakllanishi. Shaharlarning tez o'sishi va urbanizatsiya jarayonining kuchayishi. Mehnat munosabatlarining o'zgarishi va sotsial muammolarning paydo bo'lishi. Ilm-fan, ta'lim va texnik tafakkurning tez sur'atlarda rivojlanishi. Ma'rifatchilik g'oyalari va erkinlik, taraqqiyot haqidagi qarashlarning keng tarqalishi.

XVII – XVIII asrlarda Angliya. Ma'rifatchilik asri. XVII – XVIII asrlarda Fransiya.

## 21-mavzu. Yangi davrda Yevropa mamlakatlari

Absolyut monarxiyalarning kuchayishi (Fransiya, Ispaniya). Parlament tizimining rivojlanishi (Angliya). Milliy davlatlarning shakllanishi va mustahkamlanishi. Sanoat inqilobi tufayli ishlab chiqarishning o'sishi. Ilm-fan va texnika yutuqlari. Yangi davr san'ati va adabiyotining rivojlanishi. XVI – XVIII asrlarda Germaniya. XVI – XVIII asrlarda Gabsburglar imperiyasi. XVI – XVIII asrlarda Rossiya. XVI – XVIII asrlarda Italiya. XVI – XVIII asrlarda Ispaniya. XVI – XVIII asrlarda Polsha. XVI – XVIII asrlarda Bolqon xalqlari. XVI – XVIII asrlarda Shimoliy Yevropa mamlakatlari.

## 22-mavzu. Yangi davrda Amerika mamlakatlari

XVII–XVIII asrlarda Shimoliy Amerika. Angliya, Fransiya, Ispaniya va Gollandiya Shimoliy Amerikada mustamlakalar barpo etdilar. Eng yirik va kuchli koloniyalar Angliyaga qarashli bo'lib, ular keyinchalik AQShning asosini tashkil etdi. Qishloq xo'jaligida plantatsiya xo'jaligi rivojlandi, qul mehnatidan keng foydalanildi. Savdo va hunarmandchilik rivojlanib, Atlantika savdo yo'llari orqali Yevropa bilan bog'landi. Mustamlakalarda o'zini-o'zi boshqarish institutlari shakllana boshladi. Mustamlakachilar va metropoliyalar o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi. Bu ziddiyatlar keyinchalik AQSh mustaqillik urushi (1775–1783)ga olib keldi. XVII–XVIII asrlarda Lotin amerikasi mamlakatlari.

## 23-mavzu. XVI – XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari

Yangi davrda an'anaviy sivilizatsiya mamlakatlari. XVI – XVIII asrlarda

Xitoy. XVI – XVIII asrlarda Hindiston. XVI – XVIII asrlarda Yaponiya. XVI – XVIII asrlarda Koreya. XVI – XVIII asrlarda Mo'g'uliston. XVI – XVIII asrlarda Janubi – Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Usmoniylar imperiyasi. XVI – XVII asrlarda Usmoniylar imperiyasi. Usmoniylar imperiyasi inqirozining boshlanishi. XVI – XVIII asrlarda Eron. XVI – XVIII asrlarda Afg'oniston. XVI – XVIII asrlarda Arab mamlakatlari.

**24-mavzu. XVI – XVIII asrlarda Afrika xalqlari**

XVI–XVIII asrlarda Afrika hududlarida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lib qoldi. Savdo yo'llari orqali ichki va tashqi aloqalar kengaydi. Sahroi Kabir orqali shimoliy Afrika bilan, dengiz orqali esa Yevropa va Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari rivojlandi. Oltin, tuz, fil suyagi, qora tanli qullar asosiy tovarlar hisoblangan. XVI asrdan boshlab yevropalik mustamlakachilar Afrika xalqlarini keng miqyosda qul sifatida Amerikaga olib ketishdi. Bu jarayon Afrikaning demografik va iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Portugaliya, Ispaniya, Niderlandiya, Fransiya va Angliya savdo punktlari qurib, keyinchalik siyosiy ta'sirini kengaytirdi. Bu esa Afrika xalqlarining mustaqilligiga xavf solib, keyingi davrlarda mustamlakachilik siyosatining kuchayishiga olib keldi. Afrikadagi arab mamlakatlari. XVI–XVIII asrlarda G'arbiy Afrika malakatlari.

**25-mavzu. Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi**

XIX asrda sanoat inqilobining ikkinchi bosqichi sodir bo'ldi: elektr energiyasi, kimyo sanoati, po'lat ishlab chiqarish va temiryo'llar keng rivojlandi. Kapitalizm jahon miqyosida hukmron tizimga aylandi; monopoliya va kartellar paydo bo'ldi. Mustamlakachilik siyosati kuchayib, Yevropa davlatlari Osiyo va Afrikani iqtisodiy jihatdan qaram etdi. Milliy ozodlik harakatlari kuchaydi, mustamlaka xalqlari mustaqillik uchun kurashni boshladi. Yevropada konstitutsion tuzumlar shakllanib, parlamentlar faoliyati kengaydi. Ishchi sinfi va kasaba uyushmalari kuchayib, ijtimoiy huquqlar uchun kurash oldinga chiqdi. Imperialistik kuchlar o'rtasida raqobat kuchayib, bu XX asr boshida Birinchi jahon urushiga olib keldi. Ilm-fan sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Maorif va savodxonlik darajasi oshdi, matbuot va kitob nashri kengaydi.

**26-mavzu. Yevropa: sanoat davrining qiyofasi va ziddiyatlari**

XVIII asr oxiri – XIX asrda Evropada sanoat inqilobi yuz berdi, fabrika va zavodlar ko'paydi. Temir yo'llar, telegraf va telefon kabi ixtirolar ishlab chiqarish va aloqani tezlashtirdi. Qishloq xo'jaligiga ilmiy yondashuv kirib kelib, unumdorlik oshdi. Shaharlashuv kuchayib, yirik sanoat markazlari

vujudga keldi. Ishchilar og'ir mehnat sharoiti va past maoshga qarshi kurasha boshladilar. Kasaba uyushmalari va ishchilar harakatlari paydo bo'ldi. Burjuaziya iqtisodiy va siyosiy jihatdan yetakchi tabaqaga aylandi. Milliy va mustamlakachilik raqobati Yevropadagi davlatlar o'rtasida keskinlashdi. Ilm-fan sohasida ulkan yutuqlar: fizika, kimyo, biologiyada yangi kashfiyotlar. Yangi Yevropani qurishda Fransiyaning roli. XIX asr – XX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya imperiyasi, Italiya, Portugaliya. XIX asr – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi, Shimoliy Yevropa mamlakatlari, Bolqon mamlakatlari.

**27-mavzu. Yuksalayotgan Amerika**

XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda sanoat inqilobi kuchaydi, yirik korxonalar, zavod va fabrikalar barpo etildi. Temiryo'llar kengayib, mamlakat sharq va g'arb hududlari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi. Fuqarolar urushidan (1861–1865) so'ng qullik bekor qilindi, biroq irqiy tengsizlik davom etdi. Immigratsiya kuchayib, Yevropa va Osiyodan millionlab odamlar AQShga ko'chib keldi. Ishchi harakatlari va kasaba uyushmalari shakllanib, mehnat sharoitini yaxshilash uchun kurash kuchaydi. XX asr boshlarida AQSh dunyo siyosatida faol rol o'ynay boshladi. AQSh 1898-yilda Ispaniya-Amerika urushida g'alaba qozonib, Kuba, Puerto-Riko, Filippin va Gavayi ustidan nazorat o'rnatdi. Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan "Monro doktrinasi" asosida ta'sirini kengaytirdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fan, texnika va ta'lim rivojlandi. Kino va ommaviy madaniyatning shakllanishi XX asr boshida AQShni madaniy jihatdan ham yetakchi mamlakatlardan biriga aylantirdi. XIX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari Ispaniya va Portugaliyadan mustaqillikka erishdilar. Temiryo'l va portlar qurilishi tashqi savdoni rivojlantirdi.

**28-mavzu. Uyg'onayotgan Osiyo**

XIX asrda Osiyo mamlakatlari G'arbning (Angliya, Fransiya, Rossiya, AQSh va boshqalar) iqtisodiy va siyosiy bosimiga duch keldi. Hindiston – Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi, 1857–1859 yillardagi Sipohiylar qo'zg'oloni mustamlakachilikka qarshi yirik harakat bo'ldi. Xitoy – "Afyun urushlari" (1839–1842, 1856–1860) natijasida Yevropa davlatlari va Yaponiya tomonidan yarim mustamlakaga aylantirildi. "Bokserslar qo'zg'oloni" (1899–1901) milliy qarshilikning yirik ko'rinishi bo'ldi. Yaponiya – XIX asr o'rtalarida Meiji islohotlari (1868) orqali tezkor modernizatsiya amalga oshirildi, sanoatlashdi va XX asr boshida imperialistik davlatga aylandi. Turkiya (Usmonlilar imperiyasi) – XIX asrda "Sharq masalasi" doirasida Yevropa bosimi ostida qoldi, Tanzimat islohotlari o'tkazildi, ammo imperiya asta-sekin inqirozga yuz tutdi. Eron – Qajarlar davrida G'arb davlatlarining iqtisodiy-siyosiy bosimiga duchor bo'ldi, 1905–

1911 yillardagi Konstitutsion inqilob mamlakatni modernizatsiya qilishga urinish edi. Markaziy Osiyo – XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustamlakaga aylandi. Milliy ozodlik kurashlari – Osiyo xalqlari mustamlakachilik va yarim mustamlakachilikka qarshi kurashni kuchaytirdi, bu keyinchalik XX asr boshidagi mustaqillik harakatlariga asos soldi.

**29-mavzu. XIX asr – XX asr boshlarida Afrika**

Mustamlakachilik davri – XIX asr oxirida Yevropa davlatlari Afrikani deyarli to'liq bo'lib oldilar. 1884–1885 yillardagi Berlin konferensiyasi mustamlakachilikni "rasmiylashtirdi". Shimoliy Afrika – Fransiya Jazoir, Tunis va Marokashni, Angliya esa Misrni egalladi. Misr orqali Suvaysh kanali ustidan nazoratni qo'lga kiritdi. Buyuk Britaniya esa Gana, Nigeriya va Syerra-Leone ustidan hukmronlik qildi. Markaziy va Janubiy Afrika – Belgiya Kongo havzasini, Germaniya esa Tanganika, Kamerun va Namibiyani bosib oldi. Buyuk Britaniya Janubiy Afrikada mustamlaka o'rnatdi. Mustamlakachilikka qarshi kurash – Mahdiylar qo'zg'oloni (Sudan), Zulu xalqining qarshiligi (Janubiy Afrika), Samori Ture boshchiligidagi qarshilik (G'arbiy Afrika) mustamlakachilarga qarshi yirik harakatlar bo'ldi. Efiopiya – Afrikada mustaqilligini saqlab qolgan yagona davlat bo'ldi. 1896 yilda Adva jangida italyan qo'shinlarini yengib chiqdi. Iqtisodiy o'zgarishlar – Mustamlakachilar Afrika resurslarini (oltin, kauchuk, paxta, kofe va boshqalar) talon-taroj qildilar. Afrikaliklar arzon ishchi kuchi sifatida ishlatildi. Siyosiy oqibatlar – Afrika xalqlari mustaqilligidan mahrum bo'ldi, milliy chegaralar sun'iy ravishda chizildi. Bu esa keyinchalik etnik mojarolar uchun asos yaratdi. XX asr boshlarida – Mustamlakachilik hukmron bo'lib qoldi, ammo milliy ozodlik harakatlari asta-sekin kuchaya boshladi.

**30-mavzu. XX asr boshlarida dunyo taraqqiyoti**

Sanoat rivoji va imperializm – Yirik davlatlar (Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Yaponiya, Rossiya) o'rtasida bozorlar, xom-ashyo va mustamlakalar uchun raqobat kuchaydi. "Mustamlakalar uchun kurash" – XIX asr oxirida Afrika va Osiyo hududlari bo'linib bo'lgach, davlatlar o'rtasida ta'sir doiralari ustidan to'qnashuvlar paydo bo'ldi. Fransiya va Germaniya raqobati – 1870–1871 yillardagi Fransiya–Prussiya urushidan keyin Elzas va Lotaringiya Germaniyaga qo'shib olindi, bu ikki davlat o'rtasida doimiy dushmanlikka sabab bo'ldi. Angliya va Germaniya ziddiyatlari – Dengiz floti, mustamlakalar va sanoat ustunligi uchun raqobat kuchaydi. Rossiya va Angliya raqobati – Markaziy Osiyo va Eron ustidan "Buyuk o'yin" davom etdi. Balkan yarimoroli muammosi – Usmonlilar imperiyasining zaiflashuvi natijasida Rossiya, Avstriya-Vengriya va boshqa davlatlar bu hududni qo'lga olishga intildilar. Yangi harbiy bloklar: Uchiar

ittifoqi (1882) – Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya. Antanta (1904–1907) – Angliya, Fransiya, Rossiya. XX asr boshida yirik davlatlar armiyalarini kengaytirdi, harbiy texnika ishlab chiqarish jadal rivojlandi. Milliy, siyosiy va iqtisodiy raqobatlar nihoyat 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi.

**31-mavzu. Industrial sivilizatsiya: rivojlanayotgan yangi tendensiyalar**

Kapitalistik jamiyat taraqqiyotidagi yangi muammolar. Erkin tadbirkorlik kapitalizmi va uning ziddiyatlari. Davlat – monopolistik kapitalizmining shakllanishi. "Yevropa quyoshining botishi". Urushdan keyingi tinchlik o'rnatish muammolari va Yevropa mamlakatlarida inqilobiy jarayonlar. Versal – Vashington tizimi. Parij tinchlik konferensiyasi. Millatlar ligasining tashkil qilinishi. Mandat tizimi.1919 – 1923 – yillardagi tinchlik shartnomalari. Vashington konferensiyasi. Birinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy – siyosiy harakatlar va mafkuralar. Fashizm mafkurasi. Bol'shevizm. Totalitartizm. Barqaror rivojlanish va iqtisodiy inqiroz muammolari. 1920 – yillardagi iqtisodiy barqorarlashuv. 1920 – yillardagi siyosiy barqorarlashuv. 1929 – 1933 – yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi. XX asrning birinchi yarmida ilmiy – texnik taraqqiyot, ilm – fan yutuqlari. Adabiyot va san'at.

**32-mavzu. Jahon urushlari oralig'ida liberal-demokratiya mamlakatlari**

XX asrning birinchi yarmi jadal industrial taraqqiyot davri bo'ldi. Iqtisodiyotda hal qiluvchi rolni yangi texnika va texnologiyalar o'ynay boshladi. Rivojlanish sur'atlarining jadallashuvi ko'p jihatdan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ilmiy – texnik "inqilob" bilan bog'liq edi. Olimlar bu davrni "ikkinchi sanoat inqilobi" yoki "tabiatshunoslikdagi inqilob" deb atadilar. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari – Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Germaniya modernizatsiya jarayonini davom ettirib, industrial jamiyat bosqichiga kirdilar. Bu mamlakatlar o'rtasidagi milliy farqlarga qaramasdan, umum milliy daromadda sanoat mahsulotlari salmog'ining yuqoriligi, rivojlangan va nisbatan barqaror siyosiy tizimlarning shakllanganligi, fuqarolik jamiyati va unga xos bo'lgan tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar tizimi hamda davlatdan mustaqil jamoat institutlarining tashkil topganligi, shahar aholisi sonining to'xtovsiz o'sib borishi, aholining nisbatan yuqori savodlilik darajasi ular rivojlanishidagi umumiy jihatlar bo'lib qoldi.

**33-mavzu. Jahon urushlari oralig'ida totalitar rejimlar va avtoritar diktatura mamlakatlari**

Jahon urushlari oralig'ida Sovet Ittifoqi: totalitar tizimning o'rnatilishi va

| | |
|---|---|
| | o'ziga xos jihatlari. Rossiyada bol'sheviklar hokimiyatining o'rnatilishi. Fuqarolar urushi. Yangi iqtisodiy siyosat. SSSRning tashkil topishi. SSSR ikkinchi jahon urushi yillarida. Jahon urushlari oralig'ida Germaniya: fashistlarning hokimiyatga kelishi. Veymar respublikasi. 1923 – yilgi inqiroz va Germaniyaning fashistlashuvi. Germaniya iqtisodiy inqiroz yillarida. Natsistlarning hokimiyatga kelishi. Natsistlar diktaturasi davrida Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi. Jahon urushlari oralig'ida Italiya. Italiya XX asrning birinchi choragida. Italiyada fashistlarning hokimiyatga kelishi. Italiya fashistlar hukmronligi yillarida (1922 – 1943). Jahon urushlari oralig'ida Yaponiya: totalitar rejimning o'rnatilishi. Yaponiya iqtisodining "oltin davri". Yaponiyaning Osiyo bozorlaridan siqib chiqarilishi oqibatlari. Iqtisodiy qiyinchiliklarning Yaponiyaga ta'siri. Jahon urushlari oralig'ida Avstriya. Avstromarksizm. Avstrofashizm. Dol'fus diktaturasi. Avstriyaning anshlyus qilinishi. Jahon urushlari oralig'ida Janubiy Yevropa mamlakatlari. Jahon urushlari oralig'ida Sharqiy Yevropa mamlakatlari. Sharqiy Yevropa uchun Birinchi jahon urushi natijalari. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratlashtirish, davlat – huquq tizimi, partiyalar rivojlanishi. Harbiy – avtoritar rejimlarning shakllanishi. Sharqiy Yevropa urushlar oralig'ida xalqaro munosabatlar tizimida. Jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi mamlakatlari. XX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy rivolanishning asosiy tendensiyalari. Lotin Amerikasi urushdan keyingi (1918–1929) yillarda.<br><br>**34-mavzu. Jahon urushlari oralig'ida Osiyo mamlakatlari**<br><br>Jahon urushlari oralig'ida Osiyo mamlakatlari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta o'zgarishlar davrini boshdan kechirdilar. Hindiston Britaniya imperiyasining eng muhim mustamlakasi bo'lib qoldi va bu yerda Mahatma Gandi boshchiligidagi "ahimsa" va "fuqaroviy itoatsizlik" harakati mustamlakachilikka qarshi kurashning asosiy shakliga aylandi. Xitoyda 1911-yil inqilobidan keyingi siyosiy bo'linish davom etdi, Sun Yatsen va Chiang Kaishek milliy birlik hamda modernizatsiya uchun kurash olib bordilar. Shu bilan birga, Yaponiya Xitoyga nisbatan tajovuzkor siyosat yuritib, 1931-yilda Manchjuriya hududini bosib oldi. Yaponiya iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun harbiylashtirish va agressiv tashqi siyosatni kuchaytirdi. Turkiya 1923-yilda respublika e'lon qilib, Mustafo Kamol Otaturk islohotlari orqali modernizatsiya yo'liga o'tdi. Eron esa 1925-yildan boshlab Rezo Pahlaviy sulolasi hukmronligida markazlashgan davlatga aylandi. Afg'onistonda Amanullohxon islohotlar o'tkazishga harakat qilgan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish qiyin kechdi. Janubi-Sharqiy Osiyo hududlari Fransiya, Niderlandiya va Britaniya mustamlakachillgi ostida qolishda davom etdi. Bu davrda mustamlakalarda milliy-ozodlik harakatlari kuchaydi va keyingi mustaqillik jarayonlari uchun zamin yaratdi. Umuman olganda, Osiyo mamlakatlari G'arb davlatlari va Yaponiya o'rtasidagi kuchlar muvozanatining markaziga |

aylanib, jahon urushlari oralig‘ida murakkab tarixiy jarayonlarni boshdan kechirdilar.

## 35-mavzu. Jahon urushlari oralig‘ida Afrika mamlakatlari

Jahon urushlari oralig‘ida Afrika mamlakatlari asosan mustamlakachilik tizimi ostida yashashda davom etdilar. Birinchi jahon urushi tugagach, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Angliya, Fransiya va boshqa g‘olib davlatlar o‘rtasida bo‘lib olindi. Bu davrda Afrika xalqlari iqtisodiy jihatdan qattiq ekspluatatsiya qilindi, xomashyo manbalari Yevropa davlatlarining sanoat ehtiyojlari uchun keng miqyosda ishlatildi. Siyosiy jihatdan mustamlakachilar hukmronligi kuchaytirilib, mahalliy aholining huquqlari cheklab qo‘yildi. Afrika xalqlari orasida milliy-ozodlik harakatlari kuchaya boshladi, ammo ular asosan mahalliy ko‘tarilishlar shaklida kechdi. Misr 1922-yilda qisman mustaqillikka erishdi, biroq inglizlar mamlakat siyosati va iqtisodiyotida ustunlikni saqlab qoldilar. Shimoliy Afrikada, xususan, Jazoir, Tunis va Marokashda Fransuz mustamlakachiligiga qarshi kurash davom etdi. G‘arbiy Afrikada ham turli norozilik harakatlari paydo bo‘ldi, ammo ular ko‘pincha qurolli kuch bilan bostirildi. Janubiy Afrikada esa aparteid siyosatining dastlabki asoslari shakllanib, qora tanlilar huquqlari keskin cheklab qo‘yildi. Umuman olganda, jahon urushlari oralig‘ida Afrika xalqlari iqtisodiy ezilish va siyosiy qaramlikda yashagan bo‘lsalar-da, milliy ong va mustaqillikka intilish kuchaya bordi.

## 36-mavzu. Ikkinchl jahon urushi

Ikkinchi jahon urushi 1939-yildan 1945-yilgacha davom etib, insoniyat tarixidagi eng yirik va dahshatli harbiy to‘qnashuv bo‘ldi. Urush Germaniyaning Polshaga hujumi bilan boshlandi va qisqa muddatda Yevropaning katta qismi fashistlar nazoratiga o‘tdi. Germaniya, Italiya va Yaponiya “uchlik ittifoqi”ni tuzib, agressiv siyosat olib bordilar. Ularga qarshi AQSh, Buyuk Britaniya, SSSR va boshqa davlatlar koalitsiyasi shakllandi. Sharqiy frontda SSSR va Germaniya o‘rtasidagi janglar urushning hal qiluvchi bosqichiga aylandi. 1941-yilda Yaponiya AQShning Perl-Harbor bazasiga hujum qildi va bu bilan AQSh urushga rasman qo‘shildi. 1943-yildan boshlab frontlarda ittifoqchilar tashabbusni qo‘lga ola boshladilar. Normandiyaga desant tushirilishi Yevropani fashizm asoratidan ozod qilishning muhim bosqichi bo‘ldi. 1945-yil may oyida Germaniya taslim bo‘ldi, sentabrda esa AQShning Yaponiyaga atom bombasi tashlashi urushni yakunladi. Ikkinchi jahon urushi 60 milliondan ortiq inson hayotiga zomin bo‘ldi. Bu urush dunyo siyosiy xaritasini o‘zgartirdi, BMT tashkil etilishiga sabab bo‘ldi va yangi global tartibotning shakllanishiga olib keldi.

## 37-mavzu. 1945 – 2017 – yillarda jahon mamlakatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari

1945-yilda Ikkinchi jahon urushi tugagach, jahon mamlakatlari yangi siyosiy va iqtisodiy tartibot sari yuz tutdilar. Eng muhim voqea sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilib, xalqaro xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosat boshlandi. Shu davrdan boshlab dunyo "sovuq urush" davriga kirdi, bunda AQSh va SSSR o'rtasidagi mafkuraviy va geosiyosiy raqobat global jarayonlarni belgilab berdi. Yadro qurolining paydo bo'lishi xalqaro siyosatni xavfli darajaga olib chiqdi, biroq yirik urushlarning oldi olindi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida mustamlakachilikka qarshi kurash kuchayib, ko'plab yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Yevropa mamlakatlari integratsiya yo'liga o'tib, Yevropa Ittifoqi shakllandi. 1970–80-yillarda iqtisodiy rivojlanishda ilm-fan va texnologiyaning, ayniqsa, informatika va kosmik sohaning o'rni kuchaydi. 1991-yilda SSSR parchalanishi bilan dunyo ikki qutbli tizimdan bir qutbli tizimga o'tdi va AQSh yetakchi davlat sifatida maydonga chiqdi. Shu bilan birga, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlar jadal rivojlanib, global iqtisodiyotda yangi markazlarga aylandilar. 2000-yillarda globallashuv jarayoni tezlashib, iqtisodiy integratsiya va xalqaro hamkorlik kuchaydi. Ammo shu davrda mintaqaviy mojarolar, diniy-ekstremistik harakatlar va terrorizm xavfi ham kuchayib bordi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz ko'plab davlatlar iqtisodiyotiga katta zarba berdi. XXI asr boshlarida axborot texnologiyalari, internet va raqamli inqilob insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishiga aylandi. 2010-yillarga kelib, xalqaro munosabatlarda ko'p qutbli tizim shakllana boshladi, AQSh, Xitoy, Rossiya va Yevropa global siyosatda yetakchilik uchun raqobat qildilar. Umuman olganda, 1945–2017-yillarda jahon mamlakatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari siyosiy mustaqillik, iqtisodiy modernizatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari bilan belgilanadi.

## 38-mavzu. 1945 – 2017 – yillarda Shimoliy Afrika va G'arbiy Yevropa mamlakatlari

1945-yildan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlari "Marshall rejasi" yordamida tezkor iqtisodiy tiklanishni amalga oshirdilar. Germaniya G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib, "sovuq urush"ning markaziy hududlaridan biriga aylandi. 1950-yillardan boshlab Yevropa integratsiyasi jarayoni boshlandi va keyinchalik Yevropa Ittifoqi shakllandi. Bu hududda demokratik boshqaruv, ijtimoiy davlat modeli va farovonlik jamiyati mustahkamlandi. 1990-yilda Germaniya birlashdi va Yevropa Ittifoqi yangi bosqichga qadam qo'ydi. XXI asrda Yevropa iqtisodiy kuch markaziga aylandi, biroq migratsiya inqirozi va Brexit kabi muammolarga duch keldi. Shimoliy Afrikada esa urushdan keyingi davr mustamlakachilikka qarshi kurashlar va

| | |
|---|---|
| | milliy ozodlik harakatlari bilan o'tdi. Misr, Jazoir, Tunis, Marokash va Liviya XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil davlatlar sifatida shakllandi. 2010–2011-yillardagi "Arab bahori" Shimoliy Afrikada siyosiy beqarorlik va hokimiyat almashuvlariga olib keldi. Umuman olganda, G'arbiy Yevropa barqaror integratsiya yo'lini tanladi, Shimoliy Afrika esa mustamlakachilikdan qutulish va ichki beqarorliklar bilan yuzlashdi.<br><br>**39-mavzu. Ikkinchi jahon urushidan keyin SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari**<br><br>Ikkinchi jahon urushidan keyin SSSR g'olib davlat sifatida Sharqiy Yevropa mamlakatlari ustidan siyosiy va harbiy nazorat o'rnatdi. Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Bolgariya, Ruminiya va Sharqiy Germaniya SSSR ta'sir doirasiga kirdi. Bu davlatlarda kommunistik partiyalar hokimiyatni qo'lga olib, yagona mafkura asosidagi boshqaruv tizimi o'rnatildi. SSSR o'z ta'sirini mustahkamlash uchun 1949-yilda iqtisodiy hamkorlik tashkiloti – SEVni tuzdi. 1955-yilda esa Varshava shartnomasi tashkil etilib, Sharqiy Yevropada harbiy ittifoq barpo qilindi. Ushbu mamlakatlarda sanoatlashuv, kollektivlashtirish va markazlashgan boshqaruv joriy qilindi. Biroq iqtisodiy qiyinchiliklar, milliy mustaqillik intilishlari va islohotlar talabi kuchayib bordi. 1956-yilda Vengriya qo'zg'oloni, 1968-yilda Chexoslovakiyadagi "Praga bahori" SSSR tomonidan bostirildi. 1980-yillarda Sharqiy Yevropa davlatlarida inqiroz kuchayib, SSSR ta'siri zaiflashdi. Nihoyat, 1991-yilda SSSR parchalanishi bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlari mustaqil siyosiy yo'l tanlash imkoniga ega bo'ldilar.<br><br>**40-mavzu. 1945 – 2017 – yillarda Osiyo va Avstraliya mamlakatlari**<br><br>Ikkinchi jahon urushidan keyin Osiyo mamlakatlari mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqa boshladilar. Hindiston, Indoneziya, Vyetnam, Malayziya kabi davlatlar mustamlaka tizimidan chiqib, milliy davlatchilikni shakllantirdilar. Xitoyda 1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tuzilib, sotsialistik yo'l tanlandi. Koreya yarimoroli esa Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'linib, o'zaro qarama-qarshilik hududiga aylandi. Yaponiya AQSh ta'siri ostida bo'lsa-da, tezkor sanoat rivojlanishi orqali dunyoning eng ilg'or iqtisodiy davlatlaridan biriga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham "iqtisodiy mo'jiza" sari yuz tutdilar. Avstraliya esa siyosiy jihatdan G'arb demokratiyasi, iqtisodiy jihatdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasining muhim qismi sifatida rivojlandi. XXI asrda Xitoy va Hindiston global miqyosda yetakchi davlatlarga aylana boshladilar. Shu davrda mintaqada diniy-ekstremistik harakatlar, terrorizm va hududiy nizolar ham kuchayib bordi. Umuman olganda, 1945–2017-yillarda Osiyo va Avstraliya mamlakatlari mustaqillik, iqtisodiy modernizatsiya va global siyosiy jarayonlarda tobora |

muhim o‘rin egallay boshladilar.

## 41-mavzu. 1945 – 2017 – yillarda Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari

Ikkinchi jahon urushidan keyin Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda sanoatlashuv va urbanizatsiyaga katta e’tibor qaratdilar. Mintaqada harbiy rejimlar va demokratik boshqaruv o‘rtasida doimiy siyosiy almashuvlar yuz berdi. AQShning siyosiy va iqtisodiy ta’siri kuchli bo‘lib, ko‘plab davlatlarda ichki siyosatga aralashuv kuzatildi. Kuba inqilobi (1959) Lotin Amerikasi tarixida muhim burilish yasab, sotsialistik yo‘lning namunasiga aylandi. 1980–1990-yillardan boshlab ko‘plab davlatlarda demokratiya va bozor iqtisodiyoti islohotlari kuchaydi.

Afrika mamlakatlarida esa 1945-yildan so‘ng mustamlakachilikka qarshi kurashlar avj olib, 1950–70-yillarda ko‘plab davlatlar mustaqillikka erishdilar. Mustaqillikdan keyin siyosiy beqarorlik, harbiy to‘ntarishlar va qabilaviy nizolar keng tarqaldi. Iqtisodiy rivojlanish sekin kechib, ko‘plab mamlakatlar xomashyo eksportiga qaram bo‘lib qoldilar. 1990-yillardan boshlab demokratik islohotlar va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari boshlansa-da, korrupsiya va ichki urushlar rivojlanishga to‘sqinlik qildi. Umuman olganda, 1945–2017-yillarda Lotin Amerikasi demokratiya va iqtisodiy o‘sish yo‘lini tanlagan bo‘lsa, Afrika mamlakatlari mustamlakachilik merosidan qutulish va siyosiy beqarorlik muammolari bilan yuzma-yuz bo‘ldilar.

## 42-mavzu. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida jahon sivilizatsiyasi muammolari

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon sivilizatsiyasi globallashuv jarayonlari ta’sirida yangi bosqichga o‘tdi. Ilm-fan va texnika, xususan, axborot texnologiyalari va internetning rivojlanishi inson hayot tarzini tubdan o‘zgartirdi. Shu bilan birga, ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, global isish va atrof-muhitning ifloslanishi dolzarb masalaga aylandi. Aholi sonining keskin ortishi oziq-ovqat, suv va energiya taqchilligi muammolarini keltirib chiqardi. Terrorizm, diniy-ekstremizm va qurolli mojarolar xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Global iqtisodiy tengsizlik kuchayib, boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut yanada oshdi. Migratsiya oqimlari ham ijtimoiy va siyosiy muammolarga sabab bo‘ldi. XXI asr boshida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida BMT, Yevropa Ittifoqi, SHHT kabi tashkilotlarning roli ortdi. Shu bilan birga, yadro qurolining tarqalishi va yangi texnologiyalarning nazoratsiz rivoji ham xavotirli omillardan biri bo‘lib qoldi. Umuman olganda, bu davrda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyot bilan bir qatorda murakkab muammolarni ham boshdan kechirdi.

### III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar “Jahon tarixi” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg’ulotlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jahon tarixifaniga kirish: yangicha yondashuvlar va davrlashtirish muammolari
2. Qadimgi sivilizatsiyalarning vujudga kelishi
3. Mesopotamiya sivilizatsiyasi
4. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi
5. Qadimgi Eron sivilizatsiyasi
6. Ahamoniylar davlati. Ahamoniylar davri madaniyati
7. Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi
8. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi
9. Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasi
10. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi
11. O‘rta asrlar davrini belgilash muammolari
12. Islom dinining vujudga kelishi va yoyilishi
13. O‘rta asrlarda Turkiya, Eron va Afg‘oniston
14. O‘rta asrlarda Hindiston
15. O‘rta asrlarda Xitoy. Mo‘g‘ul davlatining vujudga kelishi
16. O‘rta asrlarda Yaponiya va Koreya
17. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa davlatlari
18. Salib yurishlari va uning Yaqin Sharq mamlakatlariga ta’siri
19. Yevropada yangi davrning boshlanishi
20. Yevropada industrial sivilizatsiyaning boshlanishi
21. Yangi davrda Yevropa mamlakatlari
22. Yangi davrda Amerika mamlakatlari
23. XVI – XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari
24. XVI – XVIII asrlarda Afrika xalqlari
25. Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi
26. Yevropa: sanoat davrining qiyofasi va ziddiyatlari
27. Yuksalayotgan Amerika
28. Uyg‘onayotgan Osiyo
29. XIX asr – XX asr boshlarida Afrika
30. XX asr boshlarida dunyo taraqqiyoti
31. Industrial sivilizatsiya: rivojlanayotgan yangi tendensiyalar
32. Jahon urushlari oralig‘ida liberal-demokratiya mamlakatlari
33. Jahon urushlari oralig‘ida totalitar rejimlar va avtoritar diktatura mamlakatlari

34. Jahon urushlari oralig'ida Osiyo mamlakatlari
35. Jahon urushlari oralig'ida Afrika mamlakatlari
36. Ikkinchi jahon urushi
37. 1945 – 2017 – yillarda jahon mamlakatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari
38. 1945 – 2017 – yillarda Shimoliy Afrika va G'arbiy Yevropa mamlakatlari
39. Ikkinchi jahon urushidan keyin SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari
40. 1945 – 2017 – yillarda Osiyo va Avstraliya mamlakatlari
41. 1945 – 2017 – yillarda Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari
42. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida jahon sivilizatsiyasi muammolari

## IV.MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**"Jahon tarixi"** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi
2. Qadimgi Mesopotamiyasivilizatsiyasi
3. Qadimgi Bobil.
4. Ossuriya va Yangi Bobil podsholigi.
5. Qadimgi Xett va Falastin.
6. Qadimgi Finikiya va Suriya.
7. Qadimgi Elam va Midiya.

8. Qadimgi Eronda Ahamoniylar davlati.
9. Ahamoniylar davlati Doro I davrida.
10. Qadimgi Hindistonda Mauriylar imperiyasi.
11. Hindistonda Guptalar imperiyasi.
12. Qadimgi Xitoyda Shan-In va Chjou podsholiklari.
13. Qadimgi Xitoyda Sin va Xan imperiyalari.
14. Qadimgi Yunoniston tarixi (m.av.2-ming yillik-m.av.V asr).
15. Qadimgi Yunoniston (m.av. V asr -m.av.III asr).
16. Qadimgi Rim (m.av. VIII asr -m.av.I asr).
17. Qadimgi Rim (m.av.I asr -m.III asr).
18. XammurapihukmronligidavridaBobilpodsholigi.
19. Xett podsholigi va uning madaniyati.
20. Finikiyaning mustamlakachilik siyosati va mustamlakalari.
21. Isroil-yahudiy podsholigi.
22. Ahamoniylar podsholigining tashqi siyosati va istilochilik yurishlari.
23. Qadimgi Hindiston madaniyati.
24. Qadimgi Xitoy madaniyati.
25. Arabistonni birlashtirishda islomning roli.
26. Usmonli turklarning Arab mamlakatlarida istilochilik siyosati.
27. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin Kichik Osiyoda mustaqil bekliklarning tashkil topishi.
28. Safaviylar hukmronligi davrida Eron.
29. Boburiylar imperiyasining inqirozga uchrash sabablari va G'arb davlatlarining Hindistondagi mustamlakachilik siyosati.
30. Mo’g’ullar sulolasi hukmronligi davrida Xitoy.
31. Yaponiyada ikki hokimiyatchilik va «yakkalanish» siyosati.
32. Imjin urushidan keyin Koreyada ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar.
33. Xristian cherkovi.
34. Buyuk Karl saltanati.
35. Muqaddas Rim saltanati.
36. O‘rta asr shaharlari.
37. Salib yurishlari davrida Yaqin Sharq.
38. Siyosiy birlashish jarayoni.
39. Buyuk geografik kashfiyotlar.
40. Cherkovni isloh qilish davri.
41. Tanzimat davrida Usmonli turk imperiyasi.
42. G‘arb davlatlarining Arab davlatlaridagimustamlakachiliksiyosati.
43. Birinchi jahon urushi yillarida Arab mamlakatlari.
44. 1905-1911-yillardagi Eron inqilobi.
45. Ingliz-afg‘on urushlari.
46. Hindiston Milliy Kongressi va uning faoliyati.
47. “Afyun” urushlari va Xitoyni G‘arb davlatlari tomonidan yarim mustamlakaga aylantirilishi.
48. Birinchi jahon urushi davrida Xitoy.

49. Meydzi inqilobi va uning ahamiyati.
50. XVII asr o'rtalarida xalqaro vaziyat.
51. Oliver Kromvel protektorati.
52. 1787-yil AQSh konstitustiyasi.
53. Fransiyada Direktoriya davri.
54. Fransiyada 1830-yil Iyul monarxiyasi.
55. Yevropada 1848-1849-yil inqilobi.
56. Germaniyaning birlashishi.
57. AQShda fuqarolar urushi.
58. Fransiya-Germaniya urushi.
59. Parij Kommunasi.
60. Monopoliyalarning tuzilishi.
61. XIX asr oxiri – XX asr boshida G'arbiy Yevropa mamlakatlari.
62. XIX asr oxiri – XX asr boshida AQSh.
63. Birinchi jahon urushi yillarida Antanta davlatlari.
64. Ikkinchi jahon urushi yillarida Arab mamlakatlari.
65. Arab-IsroilurushlarivaYaqinSharqmuammosi.
66. Eron islom inqilobi va uning ahamiyati.
67. Afg'onistonda Toliblar hukmronligi.
68. Mustafo Kamol Otaturk prezidentligi davrida Turkiya.
69. Hindistonda ayirmachilik siyosati va uning mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'siri.
70. «Katta sakrash» siyosati va «Madaniy inqilob» davrida Xitoy.
71. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi.
72. Pokistonda 1999-yil harbiy-davlat to'ntarishi va ijtimoiy-siyosiy sohadagi o'zgarishiar.
73. Yevropa mamlakatlari va AQSh iqtisodiy inqiroz davrida.
74. Ikkinchi jahon urushi.
75. Yevropa mamlakatlari 1945-1991-yillarda.
76. AQSh 1945-1991-yillarda.
77. Sovet Ittifoqi 1945-1991-yillarda.
78. Dunyo XX asr oxirida.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## V. KURS ISHI UCHUN MAVZULAR RO'YXATI.

1. Jahon tarixini o'rganishda yangicha yondashuvlar va davrlashtirish muammolari
2. Qadimgi sivilizatsiyalarning vujudga kelishi va ularning tarixiy ahamiyati
3. Mesopotamiya sivilizatsiyasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi.
4. Mesopotamiya sivilizatsiyasining yozuv va madaniy yutuqlari.
5. Qadimgi Misrda fir'avnlar davri va uning siyosiy tizimi.

| | |
|---|---|
| | 6. Misr sivilizatsiyasida diniy e'tiqodlar va arxitektura.<br>7. Qadimgi Eron sivilizatsiyasining paydo bo'lishi va ijtimoiy tuzilishi.<br>8. Ahamoniylar davlati: tashkil topishi va siyosiy tizimi.<br>9. Ahamoniylar davri madaniyati va uning Markaziy Osiyo bilan aloqalari.<br>10. Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasida kastalar tizimi va diniy e'tiqodlar.<br>11. Qadimgi Hindistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti.<br>12. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining siyosiy va madaniy xususiyatlari.<br>13. Qadimgi Xitoyda konfutsiylik ta'limoti va uning jamiyatga ta'siri.<br>14. Qadimgi Yunonistonning siyosiy tizimi va demokratik qadriyatlari.<br>15. Yunoniston madaniy merosi: falsafa, san'at va ilm-fan.<br>16. Qadimgi Rim sivilizatsiyasining huquqiy tizimi va siyosiy tuzilishi.<br>17. Rim imperiyasi va uning madaniy merosi.<br>18. O'rta asrlar davrini belgilash muammolari va tarixiy manbalar.<br>19. Islom dinining vujudga kelishi va Arab xalifaligining siyosiy tashkiloti.<br>20. Arab xalifaligi davrida ilm-fan va madaniyat rivoji.<br>21. O'rta asr Turkiya, Eron va Afg'oniston hududlarining siyosiy holati.<br>22. O'rta asr Hindistoni: siyosiy va madaniy rivojlanish.<br>23. O'rta asr Xitoy sivilizatsiyasi va Mo'g'ul davlatining tashkil topishi.<br>24. Mo'g'ul imperiyasining siyosiy va madaniy ahamiyati.<br>25. O'rta asrlarda Yaponiya va Koreya: siyosiy va madaniy xususiyatlari.<br>26. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa davlatlarining siyosiy rivoji.<br>27. Salib yurishlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga siyosiy ta'siri.<br>28. Salib yurishlari davrida madaniy va iqtisodiy aloqalar.<br>29. O'rta asrlarda ilm-fan va madaniyatning Yevropa va Osiyo o'rtasidagi almashinuvi.<br>30. Jahon tarixida qadimgi va o'rta asr sivilizatsiyalarining o'zaro ta'siri.<br>31. Arab mamlakatlarining mustaqillik jarayoni va zamonaviy rivojlanish yo'llari.<br>32. Usmonli imperiyasining oxirgi davri va yangi davrga o'tish muammolari.<br>33. Eronning 20-asrdagi siyosiy modernizatsiyasi va ijtimoiy transformatsiyasi.<br>34. Afg'onistonning yangi davrdagi ichki siyosiy o'zgarishlari va xalqaro ta'siri.<br>35. Hindistonda mustamlakachilikdan mustaqillikka: yangi davr boshida yuzaga kelgan muammolar.<br>36. Xitoyning yangi davrda siyosiy tizim va iqtisodiy modernizatsiyasi.<br>37. Yaponiyaning sanoatlashuvi va zamonaviy davlatga aylanishi.<br>38. Koreyaning ikkiga bo'linishi va yangi davrdagi siyosiy taraqqiyoti. |

| | |
|---|---|
| | 39. G‘arbiy Yevropaning yangi davrdagi iqtisodiy tiklanishi va siyosiy o‘zgarishlari.<br>40. Amerika Qo‘shma Shtatlari va global siyosatda yangi davr roli.<br>41. Birinchi jahon urushining sabablari, oqibatlari va Yangi jahon tartibiga ta’siri.<br>42. 1919-1991-yillarda arab mamlakatlarida siyosiy va ijtimoiy harakatlar.<br>43. Turkiyaning yangi davrdagi islohotlari va Atatürkning siyosiy merosi.<br>44. Eronning 20-asrdagi siyosiy inqiloblari va ularning xalqaro ta’siri.<br>45. Afg‘oniston: 20-asrda ichki mojaro va tashqi aralashuvlar.<br>46. Hindistonning yangi davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlari va mustaqillikka tayyorgarlik.<br>47. Pokistonning 1947-1991-yillardagi siyosiy yo‘li va xalqaro munosabatlari.<br>48. Xitoyda kommunistik partiyaning hokimiyatga kelishi va iqtisodiy o‘zgarishlar.<br>49. Yaponiya: ikkinchi jahon urushidan keyingi siyosiy va iqtisodiy tiklanish.<br>50. Koreyaning janubiy va shimoliy qismlarda yangi davr siyosati va iqtisodiyoti.<br>51. Sovet Ittifoqining tashkil topishi, rivojlanishi va qulash jarayoni.<br>52. Sovuq urush davrida AQSH va Sovet Ittifoqining siyosiy raqobati.<br>53. G‘arbiy Yevropaning 1919-1939-yillardagi siyosiy o‘zgarishlari va iqtisodiy inqirozlar.<br>54. Arab mamlakatlarida neft inqilobi va yangi davr siyosati.<br>55. Usmonli imperiyasining qulashidan keyingi yangi siyosiy tartiblar.<br>56. Eronning 20-asrdagi milliy harakatlari va ularning ijtimoiy oqibatlari.<br>57. Afg‘onistonda sovetlar davri (1979-1991) va uning xalqaro ta’siri.<br>58. Hindistonning mustaqillikdan keyingi siyosiy va ijtimoiy rivojlanishi.<br>59. Xitoyda iqtisodiy liberallashtirish va global integratsiya jarayoni.<br>60. Yaponiyaning 20-asr ikkinchi yarmida iqtisodiy mo‘jizasi: sabablari va natijalari.<br>61. Arab milliy harakatlari va mustaqillikdan keyingi siyosiy transformatsiyalar.<br>62. Usmonli imperiyasining harbiy va siyosiy zaiflashuvi yangi davrga ta’siri.<br>63. Eronning Pahlavi sulolasining hokimiyati va siyosiy islohotlari.<br>64. Afg‘onistonning 20-asr oxiridagi etnik va siyosiy nizolari.<br>65. Hindiston va Pokistonning bo‘linishi va uning mintaqaviy siyosatga ta’siri.<br>66. Xitoyning XX asr boshida millatchilik harakatlari.<br>67. Yaponiyaning yangi davrdagi tashqi siyosati va Osiyo bo‘yicha |

| | |
|---|---|
| | ekspansiyasi.<br>68. Koreya urushi va uning yangi davr tarixidagi o'rni.<br>69. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida fashizmning paydo bo'lishi va ta'siri.<br>70. Amerika Qo'shma Shtatlarining 20-asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy harakatlari.<br>71. Arab mamlakatlarida demokratiya va avtoritarizm o'rtasidagi raqobat<br>72. Turkiyaning yangi davrda Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari.<br>73. Eron inqilobining mintaqaviy va global siyosatga ta'siri.<br>74. Afg'onistonda sovet bosqini va AQSHning roli.<br>75. Hindistonning iqtisodiy modernizatsiyasi va global maydondagi o'rni.<br>76. Pokistonning 20-asrda ichki siyosiy muammolari.<br>77. Xitoyning 1978-yildan keyingi iqtisodiy islohotlari va ularning global ta'siri.<br>78. Yaponiya va Koreyada 20-asrda madaniy o'zgarishlar.<br>79. Sovet Ittifoqining qulash sabablari va dunyoga ta'siri.<br>80. Sovuq urush davrida AQSH va Yevropa ittifoqining tashqi siyosati. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>***Talaba bilishi kerak:***<br>• Jahon xalqlari tarixiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlari; qadimgi davrdagi Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlari xalqlarining tarixi, manbashunosligi va tarixnavisligi; mamlakatlar tarixiy geografiyasi haqida manbalar va ilmiy adabiyotlar; qadimgi mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy madaniy obidalariga oid umumiy masalalar; qadimgi davrdagi Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlari madaniyati tarixi va umumbashariy sivilizasion ahamiyatini; qadimgi dunyo mamlakatlarida vujudga kelgan turli diniy qarashlarning konfessiyalarning umumiy va xos xususiyatlari; dunyo dinlari evolyusiyasi, ularning umumbashariy sivilizatsiyada tutgan o'rni, hozirgi holati, rasional va irrasional g'oyalarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi roli haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>• Jahon mamlakatlari tarixining turli bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti; o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarda qadimgi davrdagi davlatchilik jarayonlari tarixi; o'rganilayotgan mamlakatlarining xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va roli; Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlari jahon fani, madaniyati va san'ati rivojlanishiga qo'shgan hissasi; o'rganilayotgan mamlakat xalqlari madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy bosqichlari; dunyo xalqlari madaniyatining o'zaro aloqalari va ta'siri; qadimgi davrda Osiyo, Afrika va Yevropa hududida shakllangan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar, iqtisodiy dunyo |

| | |
|---|---|
| | qarashlar; qadimgi mamlakatlardagi dinlar, diniy munosabatlar va diniy an'analari haqidagi ma'lumotlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** <br>• Jahon mamlakatlari ilmiy va amaliy bilimlardan pedagogik, ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanish, shuning bilan birga hozirgi davlatlararo madaniy va iqtisodiy munosabatlarda ham ***qo'llash bo'yicha ko'nikmalargaega bo'lishi***; <br>• Jahon xalqlarining qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davr madaniyatini rivojlanish jarayonlari bo'yicha egallangan bilimlardan ilmiy-amaliy va pedagogik faoliyatda foydalanish; mamlakatlar xalqlari madaniyati bo'yicha ma'lumotlarni boshqa mamlakatlarning ilg'or madaniyatlari bilan solishtirish va bu madaniy-tarixiy tizimning afzalligini ko'rsata bilish va madaniy-tarixiy tizimning o'zlga xos jihatlarini bilish, ulardan foydalanish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:** <br>• ma'ruzalar; <br>• interfaol keys-stadilar; <br>• seminarlar (mantiqiyfikrlash, tezkorsavol-javoblar); <br>• guruhlardaishlash; <br>• taqdimotlarqilish; <br>• individual loyihalar; <br>• jamoa bo'lib ishlash va himoyaqilishuchunloyihalar. |
| **5.** | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** <br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahiil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirish. |
| **6.** | **VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLARI HAMDA AXBOROT MANBALARI** <br><br>**ASOSIY ADABIYOTLAR** <br><br>1. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи: Янги давр. I қисм. XVI-XVIII асрлар. Ўзбекистон нашриёти. 2013 й. 596 с. <br>2. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи: Янги давр. II қисм. 1800-1918 йиллар. Ўзбекистон нашриёти. 2015 й. 568 с. <br>3. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи: Энг янги давр (1918-1945 йиллар). III қисм. Ўзбекистон нашриёти. 2018 й. 596 с. <br>4. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи энг янги давр 1945-2017 йиллар IV қисм. Ўзбекистон нашриёти. 2018 й. 596 с. |

5. KabirovA. Qadimgi Sharq tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., “Tafakkur”, 2016.
6. Ergashev Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
7. Василев В. История Востока 2-том (учебное пособие). –М., 2004.
8. Петросова О. История стран Азии и Африки. – Т.: Таш ГИВ, 2012.

## QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Arab mamlakatlari tarixi. Mualliflar: N.Abdullayev va boshq. TDSHI, T., 2018.
2. Boboxo‘jayev M.A. Afg‘onistonning yangi tarixi (1747-1918) (o‘quvqo‘llanma). –T., TDSHI, 1997.
3. Hindiston tarixi(o‘quv qo‘llanma). Tuzuvchilar: T.G‘iyosov, N.Abdullayev, U.Abdullayev, Z. Qodirov. –T, 2015.
4. ImomnazarovQ. Koreya tarixi va madaniyati (o‘quvqo‘llanma). –T., TDSHI, 2009.
5. Mirziyoyev Sh. M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston – T.: “O‘zbekiston”, 2024.
6. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
7. Pokiston tarixi (o‘quv qo‘llanma).Tuzuvchilar: T. G‘iyosov, N.Abdullayev, U.Abdullayev, Z. Qodirov. –T, 2015.
8. Qodirov Z.M. Arab mamlakatlari tarixi (qadimgi va o‘rta asrlar).–T., TDSHI, 2014 (o‘quv qo‘llanma).
9. Salimov T. Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari. V-XV asrlarda). Toshkent: “Universitet”, 2014.
10. T.G‘.G‘iyosov. Hindistonning o‘rta asrlar tarixi (o‘quvqo‘llanma). – T.2004.
11. Turkiya tarixi (o‘quv qo‘llanma).Tuzuvchilar: N.A.Abdullayev, Z.M.Qodirov, X.X.Hamidov, Sh.Ikromov. TDSHI, T.: 2018.
12. Торкунов А.В. История Кореи (Новоепрочтение). –М., 2003.(учебник)

## Scopusdan maqolalar

1. Khashayar Danandeh, Pegah Rasoulian, Homa Seyedmirzaei, Behnaz Mahmoudvand, Behnood Avand, Amini, Fatemeh Samadian, Golnaz Ranjbar Pazuki, Amir Hossein Memari, Amin Nakhostin-Ansari. Burden of alcohol use disorder and its consequences in Iran from 1990 to 2019: Findings from the global burden of disease study // Preventive Medicine Reports. Volume 46. (2020) https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2211335524002870/pdfft?md5=7088d30656a512d86243551623424e7c&pid=1-s2.0-S2211335524002870-main.pdf
2. Fatholah Karimi, Mohammad Ghahderijani, Hossien Bakhoda. Optimizing cropping patterns and resource allocation for sustainable agricultural

| | |
|---|---|
| | development: A case study of Ilam province, Iran Author links open overlay panel // Environmental and Sustainability Indicators. Volume 23. (2024). https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2665972724001326/pdfft?md5=67056d5b63bd3e40be735721b3e46e59&pid=1-s2.0-S2665972724001326-main.pdf<br>3. Mirza Sadaqat Huda, Saleem H. Ali. Energy diplomacy in South Asia: Beyond the security paradigm in accessing the TAPI pipeline project // Energy Research & Social Science Volume 34( 2017). 202-213. https://www.sciencedirect.com/getaccess/pii/S2214629617302372/purchase<br>4. Mustafa Disli, Shakir Jalaly. The performance of Islamic and conventional microfinance loans in Afghanistan: The Taliban and beyond // Emerging Markets Review. Volume 59 (2024) https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1566014123001097/pdfft?md5=d35cbe3ae55568fa7617c62dc34213db&pid=1-s2.0-S1566014123001097-main.pdf<br>5. Ajmal Khan Shams, Nur Shazwani Muhammad. Towards sustainable transboundary water cooperation between Afghanistan and Pakistan: A case study of Kabul River // Ain Shams Engineering Journal – Volume 14, Issue 2, (2023). https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2090447922001538/pdfft?md5=b43d06aefc392c0ba3d8ff6ca95360cc&pid=1-s2.0-S2090447922001538-main.pdf<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.history.ru<br>2. www.wikipediya.org<br>3. www.ancienttime.com<br>4. www.krugosvet.ru<br>5. www.world-history.ru<br>6. www.ancienthrom.ru |
| **7.** | O‘quv dasturi “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 – yil “21” 06 “13” - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 – yil “28” 06 “11” - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>U.A.Abdullayev- TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi tarix fanlari nomzodi. |

| | |
|---|---|
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>N.A.Abdullayev - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi DcS, professor.<br>D.J.Urakov – O‘zMU “Jahon tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM). |